O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JIZZAX VILOYATI JIZZAX SHAHAR HOKIMI QARORI

2024 - yil 29 - fevral 80-3-55-Q/24 Jizzax shahar hokimligi

Jizzax shahar hududida harakat xavfsizligini ta’minlash va fuqarolar bilan bog‘liq yo‘l-transport xodisalarini oldini olish maqsadida taqiqlovchi belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarorlarining ijrosini ta’minlash hamda Jizzax viloyat IIB jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati boshqarmasining 2024-yil 20-yanvardagi 10/6-103-sonli va 2024-yil 29-yanvardagi 10/6-1086-sonli xatlari hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5-, 6- va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarorlarining ijrosini ta’minlash hamda Jizzax viloyat IIB jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati boshqarmasining 2024-yil 20-yanvardagi 10/6-103-sonli va 2024-yil 29-yanvardagi 10/6-1086-sonli xatlari ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Jizzax shahar Sharof Rashidov shoh ko‘chasida joylashgan Jizzax davlat pedagogika universiteti hududidagi tibbiyot instituti ma’muriy binosi ro‘parasidan “Yangi Zebo” savdo majmuasi avtoturargohiga kirish yo‘lagiga qadar 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” hamda Sharof Rashidov shoh ko‘chasining Xalqlar do‘stligi, Toshkent va Mustaqillik ko‘chalari bilan kesishgan chorraxasidan Shifokorlar ko‘chasiga qadar bo‘lgan oralig‘ida yuk avtomobillarining harakatlanishini taqiqlash, Jizzax shahridagi Sharof Rashidov shoh ko‘chasining ta’mirlangan qatnov qismini navbatdagi ta’mir muddatiga qadar saqlanish uchun 3.4 “Yuk avtomobillarning harakatlanishi taqiqlangan” va 7.2.2 “Ta’sir oralig‘i” shuningdek, Jizzax shahar Favqulodda vaziyatlar bo‘limiga kirish yo‘lining doimiy ravishda ochiq holatda bo‘lishini ta’minlash uchun “Yong‘in xavfsizligi xizmati” hududi ro‘parasidan, O‘zbekiston Respublikasi IIV Jizzax viloyati “Dinamo jismoniy tarbiya sport jamiyati Kengashi binosi joylashgan oraliqdagi masofaga 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” hamda ushbu tashkilotlarga kirish yo‘laklari oldida 3.1 “Kirish taqiqlangan” yo‘l belgilari, “Zilol” MFY va Sharof Rashidov tumani “Qo‘shko‘prik” MFY hududlari chegarasidan o‘tuvchi Sharshara ko‘chasining Mustaqillik ko‘chasiga tutashgan joyidagi ko‘p qavatli binolar oralig‘idagi tirbandliklarni oldini olish maqsadida 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

3. Shahar ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (B.Abdullayev), shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (G‘.Axmedov)ga shahar hududidagi ko‘chalarda ikki tomoniga belgilangan tartibda yo‘l belgilari o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Shahar moliya bo‘limi (A.Abdujalilov)ga yo‘l belgilarini o‘rnatish xarajatlari uchun mahalliy budjetdan mablag‘ ajratilib berish vazifasi topshirilsin.

5. Mazkur farmoyishning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari X.Onalbayev zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **K.Xolmurodov**